

**Nosirov Jasur Tursunpulotovich.**  
**Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv  
va texnologiyalar universiteti  
Akademik faoliyat va registrator  
departamenti rahbari . Tel: +99890-  
168-00-22**  
**<https://orcid.org/0000-0003-4988-4225>**

### **SUG‘URTA KOMPANIYALARNI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASHNING TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI**

***Annotasiya.** Mazkur maqolada sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy xavfsizligini ta‘minlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari kompleks yondashuv asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda sug‘urta sektorida moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga ta‘sir etuvchi asosiy omillar — kapital yetarliligi, likvidlilik darajasi, risklarni boshqarish tizimi, sug‘urta portfelining diversifikatsiyasi hamda komplayens-nazorat mexanizmlarining o‘zaro uyg‘unligi chuqur tahlil qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** risk-menejment, moliyaviy xavfsizlik, sug‘urta kompaniyalari, sug‘urta bozori, moliyaviy barqarorlik.*

***Аннотация.** В данной статье на основе комплексного подхода исследованы организационно-экономические механизмы обеспечения финансовой безопасности страховых компаний. В ходе исследования глубоко проанализированы основные факторы, влияющие на обеспечение финансовой устойчивости в страховом секторе, такие как достаточность капитала, уровень ликвидности, система управления рисками, диверсификация страхового портфеля, а также согласованность механизмов комплаенс-контроля.*

***Ключевые слова:** риск-менеджмент, финансовая безопасность, страховые компании, страховой рынок, финансовая устойчивость.*

***Abstract.** This article studies the organizational and economic mechanisms for ensuring the financial security of insurance companies based on an integrated approach. The study provides an in-depth analysis of the main factors affecting financial stability in the insurance sector - capital adequacy, liquidity level, risk management system, diversification of the insurance portfolio, and the interaction of compliance and control mechanisms.*

***Keywords:** risk management, financial security, insurance companies, insurance market, financial stability.*

**Kirish.** Sug‘urta kompaniyalari faoliyatining uzoq muddatli barqarorligi, avvalo, uchta asosiy moliyaviy parametr kapital, texnik zahiralar hamda likvidlik resurslarining o‘zaro muvofiqlashtirilgan tarzda boshqarilishi va optimal nisbatda shakllantirilish darajasiga bog‘liq bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichlar funksional hamda institutsional jihatdan o‘zaro uzviy bog‘langan holda sug‘urta tashkilotlarining to‘lovga layoqatligi, moliyaviy barqarorligi va umumiy moliyaviy xavfsizligini ta‘minlashda tayanch omil sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur moliyaviy elementlarning muvozanatli shakllanishi sug‘urta kompaniyasi zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarning barqaror bajarilishi, risklarni qoplash imkoniyatining yetarliligi hamda moliyaviy tizim ichida uzluksiz faoliyat yuritish qobiliyatini belgilab beradi.

Moliyaviy tizimlar evolyutsiyasining hozirgi bosqichida sug‘urta kompaniyalarida kapitalni boshqarish bilan bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning ahamiyati sezilarli darajada ortib bormoqda, chunki risk omillarining murakkablashuvi, moliya bozorlaridagi volatillikning kuchayishi hamda prudensial nazorat talablarining qat‘iylashuvi sharoitida sug‘urta tashkilotlari an‘anaviy moliyaviy boshqaruv usullari bilan cheklanib qolish imkoniyatidan tobora mahrum bo‘lmoqda. Bunday sharoitda kapital, texnik zahiralar va likvidlik resurslarini kompleks tarzda boshqarishga asoslangan zamonaviy institutsional mexanizmlarni shakllantirish sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning muhim shartlaridan biri sifatida qaraladi.

Sug‘urta iqtisodiyoti yo‘nalishida olib borilgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda kapitalning iqtisodiy samaradorligi nafaqat kompaniyaning bozordagi raqobatbardoshligini belgilovchi omil sifatida, balki sug‘urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarning to‘liq va o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlovchi muhim moliyaviy kafolat sifatida ham talqin etiladi. Mazkur nuqtai nazarni asoslab bergan J. David Cummins sug‘urta sanoatida kapitalning optimal darajada shakllantirilishi kompaniyaning risklarga moslashuvchanligini oshirish bilan bir qatorda uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashini ta‘kidlaydi<sup>1</sup>.

Shu bilan birga, sug‘urta kompaniyalarida kapital, texnik zahiralar hamda likvidlik resurslari o‘rtasidagi nisbat izdan chiqqan holatlarda moliyaviy xavfsizlik tizimining asosiy elementlari bir vaqtning o‘zida zaiflashishi mumkinligi empirik tadqiqotlar orqali isbotlangan. Ushbu xulosa M. Eling va H. Schmeiser tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda ham o‘z tasdig‘ini topgan bo‘lib, unda sug‘urta

---

<sup>1</sup> Cummins, J. D., Weiss, M. A., 2000. Analyzing Firm Performance in the Insurance Industry Using Frontier Efficiency Methods. In: Dionne, G., ed., Handbook of Insurance Economics. Kluwer Academic Publishers, Boston, MA.

kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi aynan kapital, zahiralari va likvidlikning muvozanatli boshqarilish darajasiga bevosita bog‘liq ekanligi asoslab beriladi<sup>2</sup>.

**Adabiyotlar sharhi.** O‘zbekiston sug‘urta bozoriga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ham kapital yetarliligi masalasi muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mahalliy sug‘urta kompaniyalarining kapital bazasi yetarli darajada shakllanmaganligi ko‘plab hollarda sug‘urta bozorining barqaror rivojlanish sur‘atlarini cheklovchi omillardan biri sifatida talqin qilinadi. Jumladan, B. Q. Karimov o‘z tadqiqotlarida mamlakat sug‘urta bozorida kapital yetarliligi bilan bog‘liq muammolar sug‘urta xizmatlari hajmining kengayishi hamda kompaniyalarning investitsion imkoniyatlari o‘shishini ma‘lum darajada cheklayotganini qayd etadi<sup>3</sup>. B. Haqberdiyev esa ushbu muammoning yechimi sifatida sug‘urta kompaniyalari kapital tuzilmasini qayta ko‘rib chiqish, shuningdek uni riskga asoslangan metodologiya tamoyillariga moslashtirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi<sup>4</sup>. Shu nuqtai nazardan, mazkur bo‘limda sug‘urta kompaniyalarining kapital, texnik zahiralari hamda likvidlik resurslarini optimallashtirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Ilmiy adabiyotlarda kapitalni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tushunchasi sug‘urta kompaniyasi kapital tuzilmasini shakllantirish, uni saqlab turish va optimal darajada boshqarish jarayonlarini tartibga soluvchi tashkiliy choralar, iqtisodiy vositalar, moliyaviy instrumentlar hamda boshqaruv usullarining o‘zaro integratsiyalashgan majmui sifatida talqin qilinadi. Bunday mexanizmlar orqali sug‘urta kompaniyasining kapital bazasi barqaror shakllantiriladi, risk darajasi bilan kapital hajmi o‘rtasidagi nisbat muvofiqlashtiriladi hamda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi. Zamonaviy prudensial tartibga solish amaliyotida, xususan, Yevropa sug‘urta nazorati tizimida muhim o‘rin tutuvchi Solvency II rejimida kapital boshqaruvining markaziy elementi sifatida solvabilik kapital talabi - Solvency Capital Requirement (SCR) ko‘rsatkichi qo‘llaniladi. Mazkur ko‘rsatkich sug‘urta kompaniyasining belgilangan ehtimollik darajasida barcha majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan minimal iqtisodiy kapital hajmini ifodalaydi hamda u sug‘urta tashkilotining risklarga chidamlilik darajasini baholashda asosiy prudensial indikatorlardan biri sifatida qo‘llaniladi.

---

<sup>2</sup> Eling M., Schmeiser H. Insurance and the macroeconomy: Financial stability implications // The Geneva Papers on Risk and Insurance. – 2025. – Vol. 50, No. 1. – P. 1–25.

<sup>3</sup> Karimov, B. Q. (2026). Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligining iqtisodiy asoslari [Economic foundations of financial stability of insurance companies]. *Moliya, Pul va Kredit*, 3, 111–116. <https://mpkjournal.com/index.php/MPK>

<sup>4</sup> Haqberdiyev, B. (2025). Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish yo‘llari. *GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT*, 3(8). <https://doi.org/10.5281/zenodo.16927377>

Mazkur tartibga solish tizimining nazariy asoslari hamda amaliy qo‘llanish mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan R. Doff Solvency II tizimi doirasida kapital talablarining ikki pog‘onali tuzilmasi minimal kapital talabi (Minimum Capital Requirement - MCR) hamda to‘liq solvabillik kapital talabi (Solvency Capital Requirement - SCR) sug‘urta kompaniyalari kapitalga bo‘lgan ehtiyojini yanada aniqroq baholash imkonini yaratishini ta’kidlaydi<sup>5</sup>. Mazkur yondashuv, bir tomondan, sug‘urta tashkilotlarining minimal darajadagi to‘lovga layoqatlilik chegarasini belgilashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, risk omillarining kompleks ta’sirini hisobga olgan holda kompaniyaning real moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

MDH mamlakatlari sug‘urta tizimi tajribasini umumlashtirgan L. Orlanyuk-Malitskaya ham kapital yetarliligi koeffitsiyentini aniqlashda riskga asoslangan metodologiyani qo‘llash an’anaviy nisbiy ko‘rsatkichlarga tayanadigan tartibga solish mexanizmlariga nisbatan prudensial nazorat samaradorligini sezilarli darajada oshirganini qayd etadi. Bunday yondashuv sug‘urta kompaniyalarining real risk yuklamasini hisobga olish imkonini berib, kapital yetarliligini baholash jarayonini iqtisodiy jihatdan asoslangan mezonlar asosida amalga oshirishga xizmat qiladi<sup>6</sup>. Shu bilan birga, V.V. Shaxov MDH mamlakatlarida ushbu tizimni joriy etish jarayonida bir qator institutsional cheklovlar mavjudligini alohida ta’kidlaydi; xususan, aktuarlik mutaxassislarining yetarli darajada tayyorlanmaganligi, statistik ma’lumotlar bazasining to‘liq shakllanmaganligi hamda moliyaviy monitoring infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi mazkur yondashuvni to‘liq joriy etishga muayyan darajada to‘sqinlik qilayotgan omillar sifatida ko‘rsatiladi<sup>7</sup>.

**Tahlil va natijalar.** Sug‘urta kompaniyasining kapital yetarliligi darajasini baholashda zamonaviy aktuarlik amaliyotida kapital yetarliligi koeffitsiyenti keng qo‘llanilib, u quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$KYK = (\text{Haqiqiy kapital} / \text{Talab qilingan kapital}) \times 100\%$$

bunda:

*KYK* - kapital yetarliligi koeffitsiyenti (foizda);

*Haqiqiy kapital* - sug‘urta kompaniyasining o‘z mablag‘lari va kapital elementlari majmui;

---

<sup>5</sup> Doff, R. (2008). A Critical Analysis of the Solvency II Proposals. The Geneva Papers on Risk and Insurance- Issues and Practice, 33(2):193–206.

<sup>6</sup> Орланык-Малицкая, Л. А., Янова, С. Ю., & Богоявленский, С. Б. (Ред.). (2023). *Финансовый менеджмент страховой организации: учебник для вузов* (139 с.). Издательство Юрайт. <https://urait.ru/bcode/532740>

<sup>7</sup> Шахов В.В. Страховое право: Учебник для вузов / Шахова В.В., Григорьева В.Н., Ефимова Е.Л. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 384 с.

*Talab qilingan kapital* - tartibga soluvchi organ tomonidan belgilangan minimal kapital miqdori.

Mazkur ko‘rsatkich sug‘urta kompaniyasining kapital bazasi amaldagi tartibga soluvchi talablar bilan qanchalik darajada mos kelishini baholash imkonini berib, uning moliyaviy barqarorlik darajasini aniqlashda muhim diagnostik indikator sifatida qo‘llaniladi. Shu sababli kapital yetarliligi koeffitsiyentining optimal darajada saqlanishi sug‘urta kompaniyasining risklarga chidamliligini oshirish, sug‘urtalanuvchilar oldidagi majburiyatlarning ishonchli bajarilishini ta‘minlash hamda moliyaviy xavfsizlik tizimini mustahkamlash nuqtai nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Riskga asoslangan kapital talabini aniqlash jarayonida sug‘urta kompaniyasining iqtisodiy kapitalini turli risk modullari kesimida agregatsiyalash imkonini beruvchi solvabilik kapital talabi — Solvency Capital Requirement (SCR) modeli qo‘llaniladi. Mazkur model alohida risk turlari bo‘yicha hisoblangan kapital talablarini o‘zaro bog‘liqligi hamda diversifikatsiya effekti bilan birgalikda hisobga olgan holda umumiy kapital ehtiyojini aniqlashga xizmat qiladi. Bunday yondashuv risklarni kompleks baholash imkonini yaratib, sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini aniqlashda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. SCR ko‘rsatkichi quyidagi matematik ifoda orqali aniqlanadi:

$$SCR = \sqrt{\sum_i \sum_j Corr_{ij} \times SCR_i \times SCR_j} + SCR_{operation}$$

bunda:

$SCR_i, SCR_j$  - mos ravishda  $i$  va  $j$  xavf modullari bo‘yicha kapital talablari;

$Corr_{ij}$  - risk modullari o‘rtasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari matritsasining elementi;

$SCR_{operation}$  - operatsion xavf bo‘yicha kapital talabi.

Mazkur formuladan foydalanish sug‘urta kompaniyasining risk tuzilmasini tizimli ravishda hisobga olish imkonini yaratib, ayniqsa bozor, kredit, sug‘urta hamda operatsion risklar o‘rtasida yuzaga keladigan diversifikatsiya effektini ifodalashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, riskga asoslangan kapital baholash tizimining amaliy qo‘llanishi ko‘p jihatdan tartibga solish mexanizmlarining mukammalligi hamda institutsional infratuzilmaning rivojlanganlik darajasiga bog‘liqdir.

Masalan, Z. S. Anvarova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarida SCR komponentlarini hisoblashda qo‘llaniladigan metodik yondashuvlar milliy tartibga solish hujjatlarida yetarli darajada aniq belgilab berilmaganligi sababli kapitalni boshqarish bo‘yicha qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlarining optimalligiga ma‘lum darajada cheklovlar

yuzaga kelayotgani qayd etiladi<sup>8</sup>. Shuningdek, sug‘urta sohasida riskga asoslangan kapital tartibga solishining iqtisodiy samaradorligini tadqiq qilgan Scott Harrington ushbu tizimning natijadorligi ko‘p jihatdan tartibga soluvchi organlar hamda sug‘urta kompaniyalari o‘rtasidagi axborot nomutanosibligi darajasini kamaytirish bilan bevosita bog‘liqligini asoslab beradi<sup>9</sup>. Chunki moliyaviy ko‘rsatkichlar, risk parametrlarining shaffofligi hamda hisob-kitob metodologiyasining ochiqligi prudensial nazorat mexanizmlarining samarali ishlashini ta‘minlaydigan muhim institutsional shartlardan biri hisoblanadi.

Kapital, texnik zahiralar hamda likvidlik resurslarini samarali boshqarish sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashning muhim institutsional shartlaridan biri bo‘lib, mazkur jarayonni tizimli tashkil etish maqsadida ushbu moliyaviy elementlarni optimallashtirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni ilmiy jihatdan tasniflash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, sug‘urta kompaniyalarida kapital, texnik zahiralar va likvidlikni boshqarish amaliyotini umumlashtirish asosida mazkur mexanizmlarning mualliflik tasnifi ishlab chiqildi.

Mazkur tasnif sug‘urta kompaniyasida kapital, zahiralar hamda likvidlikni boshqarish jarayoni alohida-alohida funksional yo‘nalishlar doirasida emas, balki o‘zaro integratsiyalashgan institutsional tizim sifatida shakllanishi zarurligini ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan kapital, texnik zahiralar va likvidlikni boshqarish jarayonlarini yagona moliyaviy boshqaruv platformasi asosida muvofiqlashtirish muhim metodologik ahamiyatga ega bo‘lib, u aktivlar va majburiyatlarni boshqarish (Asset-Liability Management - ALM) tizimi orqali amalga oshiriladi.

---

<sup>8</sup> Anvarova Zarrina Saidovna YANGI O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISH VA TARTIBGA SOLISHNING XORIJ TAJRIBASI // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2025. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-o-zbekistonda-sug-urta-bozorini-raqamlashtirish-va-tartibga-solishning-xorij-tajribasi>

<sup>9</sup> Harrington, S. E., & Niehaus, G. (2020). *Risk Management and Insurance* (2nd Ed.). McGraw-Hill.

**1-jadval.**

**Sug‘urta kompaniyalarida kapital, texnik zahiralar va likvidlikni optimallashtirish mexanizmlari tasnifi<sup>10</sup>**

<b>Mexanizm turi</b>	<b>Tashkiliy mexanizmlar</b>	<b>Iqtisodiy mexanizmlar</b>	<b>Boshqaruv vositalari</b>
Kapital boshqaruvi	Kapital tuzilmasi bo‘yicha komitet; ichki kapital me‘yorlari; aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarorlari	SCR/MCR hisoblash modellari; riskga asoslangan kapital normativlari; kapital buferlarini shakllantirish	ICAAP jarayoni; kapital rejalashtirish; stress-testlar; tartibga soluvchi organlar bilan institutsional muloqot
Texnik zahiralar boshqaruvi	Aktuarlik bo‘limi; zahiralar shakllantirish siyosati; ichki audit; boshqaruv kengashi nazorati	Chain-Ladder metodi; Bornhuetter–Ferguson modeli; stokhastik zahira hisoblash; zararlilik koeffitsiyenti tahlili	Zahiralar yetarliligi testi; aktuarlik ekspertizasi; tartibga solish monitoringi; hisobot tizimi
Likvidlik boshqaruvi	Xazina bo‘limi; investitsiya komiteti; likvid aktivlar portfeli; favqulodda likvidlik rejasi	ALM modeli; likvidlik qoplash koeffitsiyenti hisoblash; pul oqimi prognozlash; muntazam stress-testlar	Likvidlik limitlari; investitsiya siyosati; real vaqt monitoringi; tartibga solish hisobotlari
Integratsiyalashgan ALM	Kross-funksional komitet; strategik rejalashtirish bo‘limi; moliyaviy risklarni boshqarish bo‘limi	Ssenariy tahlili; Monte-Karlo simulyatsiyasi; aktivlar va majburiyatlar duration moslashuvi	Yagona moliyaviy boshqaruv paneli; korporativ risk registri; ORSA hisobot tizimi

Ushbu yondashuvga ko‘ra, sug‘urta kompaniyasining moliyaviy resurslari uchta asosiy blok kapital, texnik zahiralar va likvidlik resurslari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni hisobga olgan holda boshqariladi. Mazkur elementlar o‘rtasidagi muvozanatning ta‘minlanishi kapitalning risklarga mos ravishda shakllanishi, zahiralarining sug‘urta portfeli risk profiliga muvofiqligi hamda likvid aktivlar hajmining majburiyatlar strukturasi bilan mos kelishi orqali ifodalanadi. Bunday integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmi sug‘urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash bilan bir qatorda investitsiya siyosatini optimallashtirish, to‘lovga layoqatlilik darajasini mustahkamlash hamda moliyaviy risklarni tizimli nazorat qilish imkonini beradi.


Kapital, zahiralar va likvidlikni integratsiyalashgan boshqarish tizimi, odatda, bir qator tashkiliy, iqtisodiy hamda boshqaruv instrumentlari asosida faoliyat

<sup>10</sup> J.D. Cummins (2022), R. Doff (2020), V.V. Shahov (2019) asosida muallif ishlanmasi

yuritadi. Tashkiliy mexanizmlar tarkibiga kapital tuzilmasi komiteti, aktuarlik bo‘limi, investitsiya komiteti, xazina bo‘limi hamda korporativ boshqaruv organlari faoliyati kiradi. Iqtisodiy mexanizmlar esa kapital yetarliligini baholash modellari, riskga asoslangan kapital me‘yorlari, aktuarlik hisoblash metodologiyalari, pul oqimi prognozlash usullari hamda aktivlar va majburiyatlar mosligini baholash modellari orqali namoyon bo‘ladi. Boshqaruv vositalari sifatida esa stress-testlar, kapital rejalashtirish tizimi, ORSA hisoboti, likvidlik limitlari, real vaqt monitoringi hamda tartibga soluvchi organlar bilan axborot almashish tizimlari qo‘llaniladi.

Mazkur mexanizmlar o‘z navbatida milliy va xalqaro tartibga solish muhitining talablariga ham mos ravishda shakllanadi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining sug‘urta qonunchiligi, xalqaro sug‘urta nazorati standartlari hamda prudensial tartibga solish tamoyillari sug‘urta kompaniyalarida kapital, zahiralar va likvidlikni boshqarish tizimini institutsional jihatdan tartibga soluvchi asosiy me‘yoriy omillar hisoblanadi. Ushbu tartibga solish muhiti sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, to‘lovga layoqatlilik darajasini nazorat qilish hamda sug‘urtalanuvchilar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan kompleks mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Kapital, zahiralar va likvidlikni optimallashtirishga qaratilgan mazkur tashkiliy-iqtisodiy tizimning samarali amal qilishi natijasida sug‘urta kompaniyalarida bir qator ijobiy natijalarga erishish mumkin. Xususan, moliyaviy barqarorlik darajasining oshishi, to‘lovga layoqatlilik ko‘rsatkichlarining mustahkamlanishi, kapitaldan foydalanish samaradorligining ortishi hamda bozor sharoitida raqobat ustunligining kuchayishi shular jumlasidandir. Shu bilan birga, moliyaviy ko‘rsatkichlarning shaffofligi va barqarorligi investorlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.



### 1-rasm. Sug'urta kompaniyasida kapital, zahiralar va likvidlikni optimallashtirish mexanizmlarining tashkiliy-iqtisodiy tizimi<sup>11</sup>

Texnik zahiralar sug'urta kompaniyasi balansining eng muhim passiv elementlaridan biri hisoblanib, ular kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sug'urta to'lovlari bo'yicha majburiyatlarni qoplash maqsadida shakllantiriladigan moliyaviy resurslar majmuini ifodalaydi. Shu sababli zahiralarini optimallashtirish deganda ularning hajmi va tuzilmasini sug'urta portfeli tavsiflari, zararlar dinamikasi hamda makroiqtisodiy sharoitlar bilan muvofiqlashtirish orqali maqbul darajaga keltirish jarayoni tushuniladi.

<sup>11</sup> Harrington (2020), Eling va Schmeiser (2021), Karimov (2026), Haqberdiyev (2025), Cummins (2022), Doff (2020), Shahov (2019) asosida muallif ishlanmasi

Sug‘urta zahiralari boshqarish samaradorligi masalasi bo‘yicha olib borilgan empirik tadqiqotlarda E. Ivashkin to‘g‘ri shakllantirilgan zahira siyosati sug‘urta portfelining zararlilik koeffitsiyentini sezilarli darajada kamaytirish imkonini berishini ilmiy jihatdan asoslab bergan<sup>12</sup>. Bu esa zahiralarni hisoblash metodologiyasining aniqligi sug‘urta kompaniyasi moliyaviy barqarorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatishini anglatadi.

O‘zbekiston sug‘urta bozorida texnik zahiralari shakllanishi dinamikasini tahlil qilgan X. B. Isayeva esa ko‘plab hollarda zahiralari hajmi asosan tartibga soluvchi talablarni formal ravishda bajarish bilan cheklanib qolayotganini, natijada ularning real risk profiliga to‘liq mos kelmasligi muammosi mavjudligini qayd etadi<sup>13</sup>. MDH mamlakatlarida aktuarlik metodologiyasini joriy etish jarayonini tahlil qilgan K. Turbina esa ushbu sohadagi asosiy tizimli to‘siqlar sifatida statistik ma‘lumotlar bazasining yetarli darajada shakllanmaganligi hamda malakali aktuar mutaxassislar yetishmovchiligini ko‘rsatadi<sup>14</sup>.

Sug‘urta kompaniyalarida joriy xavflar zahirasini aniqlashda qo‘llaniladigan metodologik yondashuv quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$JXZ = \sum P_i \times (1 - K_{i\_zarar}) \times (n_i / N_i)$$

bunda:

$JXZ$  - joriy xavflar zahirasi;

$P_i$  -  $i$ -sug‘urta shartnomasi bo‘yicha yig‘ilgan sug‘urta mukofoti;

$K_{i\_zarar}$  -  $i$ -shartnoma bo‘yicha hisobot davridagi zararlilik koeffitsiyenti;

$n_i$  - to‘lov muddatining qolgan qismi (kunlarda);

$N_i$  - sug‘urta shartnomasining umumiy amal qilish muddati (kunlarda).

Mazkur metodologiya sug‘urta portfelidagi risklarning vaqt bo‘yicha taqsimlanishini hisobga olish orqali texnik zahiralarning yetarlilik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Kechiktirilgan zarar zahirasini aniqlash jarayonida esa zamonaviy aktuarlik amaliyotida statistik prognozlash metodlari keng qo‘llaniladi. Jumladan, Hans Buhlmann tomonidan ishlab chiqilgan aktuarlik nazariyasiga asoslangan holda Chain-Ladder hamda Bornhuetter-Ferguson metodlarining kombinatsiyalangan qo‘llanilishi sug‘urta da‘volari rivojlanish dinamikasini yanada aniqroq baholash

<sup>12</sup> Ивашкин Е. И., Егоров Д. И. О формировании правовой базы сельскохозяйственного страхования с финансовой поддержкой государства // Вестник Российской экономической академии имени Г. В. Плеханова. 2010. № 2

<sup>13</sup> Isayeva, Xolbibibi Boboqulovna O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI // ORIENSS. 2024. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-sug-urta-sohasining-rivojlanish-istiqbollari>

<sup>14</sup> Турбина, К. Е. (2000). *Современные тенденции развития мирового рынка страхования*. <https://www.disserscat.com/content/sovremennye-tendentsii-razvitiya-mirovogo-rynka-strakhovaniya>

imkonini beradi<sup>15</sup>. Ushbu yondashuv doirasida kechiktirilgan zarar zahirasi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$KZZ = \sum_i [ C_{\infty_i} - C_{in} ]$$

bunda:

$C_{\infty_i}$  -  $i$ -da'vo bo'yicha prognoz qilingan yakuniy zarar miqdori;

$C_{in}$  - hisobot sanasiga qadar  $i$ -da'vo bo'yicha amalda to'langan zarar miqdori.

MDH mamlakatlari sug'urta bozori tajribasini tahlil qilgan A. Suetin Chain-Ladder hamda Bornhuetter-Ferguson metodlarining integratsiyalashgan holda qo'llanilishi texnik zahiralarni hisoblash aniqligini o'rtacha 25-30 foizga oshirish imkonini berishini empirik ma'lumotlar asosida ko'rsatadi. Bu esa aktuarlik hisoblash metodologiyalarini takomillashtirish sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi<sup>16</sup>.

Sug'urta kompaniyalarida texnik zahiralar tarkibi va ularni shakllantirish metodologiyasi sug'urta portfelining risk tuzilmasi, shartnomalar muddati, zararlar dinamikasi hamda tartibga solish talablari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ushbu omillar majburiyatlarni moliyaviy ta'minlash tizimini shakllantiradi. Shu bois texnik zahiralar tarkibini ilmiy jihatdan tizimlashtirish hamda ularni hisoblash metodlarini tahlil qilish sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini baholashda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Xalqaro sug'urta bozorining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda sug'urta kompaniyalarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini modernizatsiya qilish jarayonida raqamli va analitik texnologiyalarning roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Xususan, Swiss Re Institute tomonidan e'lon qilingan global tahlil natijalarida sug'urta kompaniyalari likvidlik xavfini boshqarish tizimida texnologik yechimlar keng joriy etilayotgani, jumladan real vaqt rejimida ishlovchi monitoring platformalari hamda sun'iy intellekt algoritmlariga asoslangan pul oqimlarini prognozlash modellari amaliyotda faol qo'llanilayotgani qayd etiladi. Bunday texnologik instrumentlar moliyaviy risklarni erta aniqlash, likvidlik pozitsiyasini operativ baholash hamda sug'urta majburiyatlarini bajarish qobiliyatini barqaror darajada saqlab turishga xizmat qilmoqda<sup>17</sup>.

---

<sup>15</sup> Yi, Zhang, Limin, Wen, Zhilong, Li, The Bühlmann–Straub Estimation of Claim Means in Random B-F Reserve Model, *Mathematical Problems in Engineering*, 2020, 6062906, 11 pages, 2020. <https://doi.org/10.1155/2020/6062906>

<sup>16</sup> Суэтин А.А., Международные валютно-финансовые отношения: учебник / А.А. Суэтин. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: КНОРУС, 2006. – 360 с.

<sup>17</sup> Swiss Re Institute. (2022). *sigma* No. 4/2022: World insurance: Riding out the inflation storm. Swiss Re. <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2022-04.html>

**2-jadval.**

**O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining kapital yetarliligi va likvidlik ko‘rsatkichlari dinamikasi, 2020-2023 yy.<sup>18</sup>**

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	Δ, %
Umumiy kapital, mlrd. so‘m	1 842	2 317	3 105	4 240	+130
KYK, % (talab $\geq 100\%$ )	118,4	124,6	131,2	138,7	+17,1
SCR qoplanish darajasi, %	142,1	151,8	158,3	167,4	+17,8
Joriy likvidlik koeffitsiyenti (JLK)	1,24	1,31	1,38	1,45	+16,9
LQK, %	97,8	103,4	108,9	115,2	+17,8
Texnik zahiralalar / yig‘ilgan mukofotlar, %	68,2	71,4	74,8	78,3	+14,8
To‘lovga layoqatlilik marjasi, %	22,3	26,7	30,1	34,6	+55,2

Jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2020–2023-yillar davomida O‘zbekiston sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi asosiy indikatorlar bo‘yicha barqaror ijobiy dinamikaga erishilgan. Xususan, umumiy kapital hajmining 1,8 trln so‘mdan 4,2 trln so‘mgacha oshishi sug‘urta sektorining kapitallashuv darajasi sezilarli darajada mustahkamlanganini anglatadi. Mazkur jarayon, o‘z navbatida, sug‘urta kompaniyalarining risklarni qoplash imkoniyatlari kengayganini hamda ularning moliyaviy barqarorlik zaxiralari mustahkamlanayotganini ko‘rsatadi.

Zamonaviy sug‘urta kompaniyalari faoliyatida kapital, texnik zahiralalar va likvidlikni kompleks tarzda boshqarish zarurati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning integratsiyalashgan tizimini shakllantirishni taqozo etadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu masala keng o‘rganilgan bo‘lib, J. Cummins va M. Weiss tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda qayta sug‘urta mexanizmining kapital va zahira boshqaruvidagi roli alohida ta’kidlanadi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, qayta sug‘urta orqali risklarning bir qismini tashqi subyektlarga uzatish nafaqat zararlilik koeffitsiyentining barqarorligini ta’minlaydi, balki sug‘urta kompaniyasining kapitalga bo‘lgan talabini ham ma’lum darajada kamaytiradi<sup>19</sup>.

Xavf-boshqaruv nazariyasi nuqtai nazaridan kapital, zahiralalar va likvidlikni yagona tizim doirasida boshqarish alohida-alohida boshqaruv mexanizmlariga nisbatan yuqori samaradorlikni ta’minlashi mumkinligi M.G. Jigas tomonidan ishlab

<sup>18</sup> Jadvalda keltirilgan ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va sug‘urta nazorat organlarining rasmiy statistik ma’lumotlari, shuningdek Swiss Re Sigma (2022) hamda IAIS (2022) hisobotlari asosida muallif tomonidan umumlashtirilgan.

<sup>19</sup> Cummins, J. D., Weiss, M. A., Zi, H., 1999. Organizational Form and Efficiency: The Coexistence of Stock and Mutual Property-Liability Insurers. Management Science 45 (9), 1254–1269.

chiqilgan matematik modellar orqali asoslab berilgan<sup>20</sup>. O‘zbekiston sug‘urta bozorida tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan M.Sh. Olmosova esa milliy sug‘urta tizimida kapital, zahiralalar va likvidlikni kompleks boshqarish modelini joriy etish istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralishi lozimligini ta’kidlaydi<sup>21</sup>.

Natijada kapital, texnik zahiralalar va likvidlikni boshqarishning integratsiyalashgan modeli nafaqat moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshiradi, balki sug‘urta kompaniyasining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta’minlovchi kompleks moliyaviy xavfsizlik tizimini shakllantirishga ham xizmat qiladi.

**Xulosa.** Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sug‘urta kompaniyalarida kapital, texnik zahiralalar va likvidlikni optimallashtirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar faqat tartibga solish organlari tomonidan belgilangan prudensial talablarni bajarish vositasi sifatida emas, balki kompaniyaning uzoq muddatli strategik barqarorligini ta’minlovchi hamda raqobat ustunligini shakllantiruvchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Mazkur mexanizmlarning samarali amal qilishi sug‘urta kompaniyasining risklarga moslashuvchan moliyaviy siyosatini shakllantirish, kapital resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda majburiyatlarni qoplash salohiyatini mustahkamlash bilan bevosita bog‘liqdir.

Shu nuqtai nazardan, kapital, zahiralalar va likvidlikni optimallashtirish tizimini samarali joriy etish bir qator metodologik hamda institutsional shart-sharoitlarning mavjudligini talab etadi. Avvalo, sug‘urta kompaniyalarida xavfga asoslangan kapital talablarini aniqlash jarayonida zamonaviy aktuarlik metodologiyasiga tayanish, xususan kapital yetarliligini baholashda qo‘llaniladigan SCR (Solvency Capital Requirement) modelining parametrlarini statistik ma’lumotlar asosida muntazam ravishda qayta ko‘rib chiqish zarur. Bunday yondashuv kapital boshqaruvi tizimining real risk profiliga moslashuvchanligini ta’minlab, sug‘urta portfelida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy yo‘qotishlarni aniqroq prognozlash imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, texnik zahiralarni shakllantirish jarayonini sug‘urta kompaniyasining dinamik xavf profiliga mos holda tashkil etish muhim ahamiyat

---

<sup>20</sup> Жигас Маргарита Герутисовна Финансовая устойчивость страховой организации и факторы, определяющие ее характер // Известия БГУ. 2003. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/finansovaya-ustoychivost-strahovoy-organizatsii-i-factory-opredelyayuschie-ee-harakter>

<sup>21</sup> Olmosova, M. Sh. (2023). Sug‘urta kompaniyalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda xalqaro tajribalardan foydalanish va uni O‘zbekistonga joriy etish [Using international experience in state regulation of insurance companies and its application in Uzbekistan]. Integratsiyalashgan Ta’lim va Tadqiqotlar Jurnal, 2(4), 1–4.

kasb etadi. Bunda aktuarlik hisob-kitoblarning aniqligini oshirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan avtomatlashtirilgan hisoblash tizimlarini joriy etish, xususan Chain-Ladder hamda Bornhuetter–Ferguson kabi aktuarlik metodlaridan foydalanish zararlar rivojlanishini prognozlash jarayonini tezlashtirib, texnik zahiralarning hajmini iqtisodiy jihatdan asoslangan darajada shakllantirish imkonini beradi.

Uchinchidan, sugʻurta kompaniyalarida likvidlikni boshqarish mexanizmini kapital boshqaruvi bilan uzviy integratsiyalashgan holda tashkil etish zarur boʻlib, bunda aktivlar va majburiyatlarni boshqarish tizimi ALM platformasidan foydalanish eng maqbul institutsional yechimlardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv aktivlar va majburiyatlar muddatlari oʻrtasidagi muvofiqlikni taʼminlash, pul oqimlarini prognozlash hamda qisqa muddatli likvidlik risklarini minimallashtirish orqali sugʻurta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston sugʻurta bozori sharoitida ushbu mexanizmlarni amaliyotga joriy etish jarayoni milliy tartibga solish tizimini xalqaro standartlarga, xususan Solvency II tamoyillariga bosqichma-bosqich yaqinlashtirish bilan uzviy bogʻliq boʻlishi lozim. Bunda sugʻurta faoliyatini prudensial nazorat qilish tizimini takomillashtirish bilan bir qatorda, aktuarlik mutaxassislarini tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish, shuningdek sugʻurta kompaniyalarining statistik va moliyaviy maʼlumotlar bazalarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yangilash muhim institutsional omil sifatida namoyon boʻladi.

Mazkur jarayonning samaradorligi faqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bilan cheklanib qolmaydi; aksincha, sugʻurta kompaniyalarining ichki boshqaruv tizimlarini modernizatsiya qilish, strategik rejalashtirish hamda risk-boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish orqali ularning institutsional salohiyatini oshirish bilan birgalikda amalga oshirilgandagina barqaror va uzoq muddatli natijalarga erishish mumkin boʻladi. Shu sababli kapital, texnik zahiralarning va likvidlikni boshqarishning integratsiyalashgan modeli milliy sugʻurta bozorida moliyaviy xavfsizlikni taʼminlashning muhim konseptual asoslaridan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Cummins, J. D., Weiss, M. A., 2000. Analyzing Firm Performance in the Insurance Industry Using Frontier Efficiency Methods. In: Dionne, G., ed., Handbook of Insurance Economics. Kluwer Academic Publishers, Boston, MA.
2. Eling M., Schmeiser H. Insurance and the macroeconomy: Financial stability implications // The Geneva Papers on Risk and Insurance. – 2025. – Vol. 50, No. 1. – P. 1–25.
3. Karimov, B. Q. (2026). Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligining iqtisodiy asoslari [Economic foundations of financial stability of insurance companies]. *Moliya, Pul va Kredit*, 3, 111–116. <https://mpkjournal.com/index.php/MPK>
4. Haqberdiyev , B. (2025). Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish yo'llari. *GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT*, 3(8). <https://doi.org/10.5281/zenodo.16927377>
5. Doff, R. (2008). A Critical Analysis of the Solvency II Proposals. The Geneva Papers on Risk and Insurance- Issues and Practice, 33(2):193–206.
6. Орланюк-Малицкая, Л. А., Янова, С. Ю., & Богоявленский, С. Б. (Ред.). (2023). *Финансовый менеджмент страховой организации: учебник для вузов* (139 с.). Издательство Юрайт. <https://urait.ru/bcode/532740>
7. Шахов В.В. Страхование право: Учебник для вузов / Шахова В.В., Григорьева В.Н., Ефимова Е.Л. – М.:
8. ЮНИТИ-ДАНА, 2002. – 384 с.
9. Anvarova Zarrina Saidovna YANGI O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINI RAQAMLASHTIRISH VA TARTIBGA SOLISHNING XORIJ TAJRIBASI // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2025. №11. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yangi-o-zbekistonda-sug-urta-bozorini-raqamlashtirish-va-tartibga-solishning-xorij-tajribasi>
10. Harrington, S. E., & Niehaus, G. (2020). *Risk Management and Insurance* (2nd Ed.). McGraw-Hill.
11. J.D. Cummins (2022), R. Doff (2020), V.V. Shahov (2019) asosida muallif ishlanmasi
12. Harrington (2020), Eling va Schmeiser (2021), Karimov (2026), Haqberdiyev (2025), Cummins (2022), Doff (2020), Shahov (2019) asosida muallif ishlanmasi
13. Ивашкин Е. И., Егоров Д. И. О формировании правовой базы сельскохозяйственного страхования с финансовой поддержкой государства //

Вестник Российской экономической академии имени Г. В. Плеханова. 2010. № 2

14. Isayeva, Xolbibibi Boboqulovna O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI // ORIENSS. 2024. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-sug-urta-sohasining-rivojlanish-istiqbollari>

15. Турбина, К. Е. (2000). *Современные тенденции развития мирового рынка страхования*. <https://www.dissercat.com/content/sovremennye-tendentsii-razvitiya-mirovogo-rynka-strakhovaniya>

16. Yi, Zhang, Limin, Wen, Zhilong, Li, The Bühlmann–Straub Estimation of Claim Means in Random B-F Reserve Model, *Mathematical Problems in Engineering*, 2020, 6062906, 11 pages, 2020. <https://doi.org/10.1155/2020/6062906>

17. Суэтин А.А., *Международные валютно-финансовые отношения: учебник / А.А. Суэтин. – 3-е изд., испр. и доп. – М.: КНОРУС, 2006. – 360 с.*

18. Swiss Re Institute. (2022). *sigma* No. 4/2022: World insurance: Riding out the inflation storm. *Swiss Re*. <https://www.swissre.com/institute/research/sigma-research/sigma-2022-04.html>

19. Жигас Маргарита Герутисовна Финансовая устойчивость страховой организации и факторы, определяющие ее характер // *Известия БГУ*. 2003. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/finansovaya-ustoychivost-strahovoy-organizatsii-i-factory-opredelyayuschie-ee-harakter>

20. Olmosova, M. Sh. (2023). Sug'urta kompaniyalari faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishda xalqaro tajribalardan foydalanish va uni O'zbekistonga joriy etish [Using international experience in state regulation of insurance companies and its application in Uzbekistan]. *Integratsiyalashgan Ta'lim va Tadqiqotlar Jurnal*, 2(4), 1–4.

21. Karimova M.B. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalarida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari // ORIENSS. 2023. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/mamlakatimizni-modernizatsiya-qilish-sharoitida-sanoat-korxonalarida-moliyaviy-xavfsizlikni-ta-minlashning-asosiy-yo-nalishlari>